

# Tarmoq korxonalarida energiya samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmoqda

// 08 July 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tarmoq-korxonalarida-energiya-samaradorligini-oshirish-bo-yi>



Energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularni tejash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish sanoat korxonalarining ustuvor yo'nalishlardan biri.

**Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 29-apreldagi "2026-yilda energiya samaradorligini yanada oshirish, energiya resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishning qo'shimha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida "O'zbekimiyosanoat" AJ tizimida amaliy ishlar davom ettirilmoqda.**



**Xususan, “Navoiyazot” AJ bilan “O‘zbekenergota‘mir” AJ o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.** Hamkorlik doirasida korxonadagi ishlab chiqarish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bug‘ qozonlarining texnik holati atroflicha o‘rganilib, ularning energiya samaradorligini oshirish, kuz-qish mavsumida ularning uzluksiz va ishonchli ishlashini ta‘minlash bo‘yicha kompleks texnik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



**Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan texnik tahlillar asosida qozon qurilmalarining ishonchli ishlashini ta'minlash, foydali ish koeffitsiyentini oshirish, energiya yo'qotishlarini qisqartirish hamda ekspluatatsiya samaradorligini yanada yuksaltirishga qaratilgan ishlar bosqichma-bosqich bajarilmoqda.**



Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan bunday amaliy ishlar nafaqat korxonalarning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish, balki mamlakatimizda energiya tejamkorligini ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shadi.